

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

AZAMOVA MUNOJAT RAXIMOVNA

**O‘ZBEK-HIND MUSIQA MEROSIDA BOBUR VA BOBURIYLAR
IJODINING AHAMIYATI VA O‘ZBEK MAQOMOTIDAGI O‘RNI**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**San’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)
on art history**

Azamova Munojat Raximovna

O‘zbek-hind musiqa merosida Bobur va boburiylar ijodining ahamiyati va o‘zbek
maqomotidagi o‘rni.....

Азамова Муножат Рахимовна

Значение творчества Бабура и бабуридов в узбекско-индийском музыкальном
наследии и в узбекском макомате.....

Azamova Munojat Raximovna

The significance of the creativity of Babur and the baburids in the Uzbek-Indian
musical heritage and its position in the uzbek makoms.....

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

AZAMOVA MUNOJAT RAXIMOVNA

**O‘ZBEK-HIND MUSIQA MEROSIDA BOBUR VA BOBURIYLAR
IJODINING AHAMIYATI VA O‘ZBEK MAQOMOTIDAGI O‘RNI**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/San186 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.konservatoriya.uz manziliga va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begmatov Soibjon Maxmudovich
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Tursunova Gulshanoy Artikjanovna
san’atshunoslik fanlari doktori,
professor

Rahimov Botir Matyoqubovich
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.27.09.2024.San.54.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “26” dekabr kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 239-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-pochta: info@konservatoriya.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (34-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 239-46-53.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “12” dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil “12” dekabrda 18-raqamli reyestr bayonnomasi).

T.B.G‘ofurbekov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

B.Sh.Ashurov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, san’atshunoslik fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.B.Kasimxodjayeva

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda madaniyat globallasuvi misli ko‘rilmagan tezlikda kechayotgan bir vaqtda musiqashunoslik ilmida musiqani madaniy, tarixiy, ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganish katta qiziqish uyg‘otmoqda. Jahon ilmida inson kamolotidagi musiqa san’atining o‘tmishdan turli jihatlar negizida shakllanib, insoniyat tamaddunining rivojiga hissa qo‘shgan ajdodlar merosi, musiqa san’atining mushtarak jihatlarini tadqiq etish, ijro an’analarini amaliy izohlab berish, turli xalqlar madaniyati rivojiga munosib hissa qo‘shgan olimlarni ilmiy tadqiqotlariga asoslangan izlanishlar olib borish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, o‘tmish allomalarining ilmiy merosi zahirida ularning butun bashariyat uchun qilgan amallari, dunyo tarixi sahnasida yangi sahifalarni ochgan Bobur va boburiylarning jahon madaniyatidagi mavqeyi dolzarb masalalardan biridir.

Dunyo musiqa ilmida Markaziy Osiyoning turli mintaqalar bilan o‘rnatilgan hamkorlik munosabatlari ko‘plab xalqlar uchun ulkan ahamiyat kasb etganligini musiqashunoslik nazari bilan aniqlash zaruratini keltirib chiqardi. O‘tmishdan xalqlar orasida rivojlanib kelgan, avlodlar osha bizgacha yetib, insonlar ma’naviyati yuksalishiga xizmat qilib kelayotgan o‘zbek va hind madaniy aloqalarini, o‘tmish allomalarining ijod namunalarini, musiqani amaliy izohlash, taraqqiy etish jarayoni ilmiy tadqiqot olib borilishini taqozo etmoqda.

Yurtimizda so‘nggi yillarda ma’naviyat, madaniyat masalalariga qaratilayotgan e’tibor, xususan, musiqa san’atini hamda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy manbalarni, insoniyat tamadduni rivojiga hissa qo‘shgan shaxslar ijodini o‘rganish, ilmiy anglash, og‘zaki va yozma manbalarni tadqiq etib, musiqiy merosni tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. “Xalqimizning orzu-intilishlari Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Ikkinchi Uyg‘onish davrining buyuk siymolarini maydonga chiqardi, ularning asarlari va faoliyatida o‘z talqinini topgan odil podsho, adolatli jamiyat, komil inson g‘oyalarida namoyon bo‘ldi”¹. Ajdodlar tomonidan qoldirilgan ilmiy manbalarni, insoniyat tamadduni rivojiga hissa qo‘shgan shaxslar ijodini o‘rganish, ilmiy anglash, musiqiy merosni tahlil qilish dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3178-son, 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son, 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son, 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-126-son

¹ Шавкат Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: “O‘zbekiston”. 2022. - 440 бет. - В.17.

qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mirzo Bobur fenomenining ijod, musiqa san’atiga bo‘lgan munosabati xususidagi ma’lumotlar eng avvalo shoirning umr daftari “Boburnoma”²da, so‘ng zamondoshi Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy”³ va o‘zbek olimlaridan Aziz Qayumov, Hasan Qudratullayev, Saidbek Hasanov, Anzoriddin Ibrohimov, G‘ofirjon Satimov, Xayriddin Sulton, Najmiddin Nizomiddinov, Sabohat Azimjonova, Zokirjon Mashrabov, Vahob Rahmon, Abdumajid Madraimov, Burobiya Rajabova, B.Jalilov, S.Mirzayeva, O‘.Soibjonovalar⁴ning asarlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbek musiqashunosligi dunyo miqyosida nufuzli hisoblanadi. Uning vakillaridan aynan Bobur ijodining o‘zbek musiqa san’atidagi o‘rni, ahamiyati, milliy maqom san’ati rivojiga qo‘shgan beqiyos hissiy yuzasidan o‘zbek musiqasining yorqin namoyandalardan Abdurauf Fitrat, fan doktorlari, professorlardan Is’hoq Rajabov, To‘xtasin G‘ofurbekov, Abdumannon Nazarov, Oqilxon Ibrohimov, professor Aleksandr Jumayev va musiqashunos-hindshunos olimalar Dilorom Karomat hamda Oygul Malkeyeva⁵larning nomlarini keltirib o‘tish lozim. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasida⁶ qomusiy olim Boburning asarlarida uchraydigan musiqiy ma’lumotlar to‘g‘risida professorlar Zokirjon Oripov, Otanazar Matyoqubov, yosh tadqiqotchi (PhD) Muzaffar

² Бобур З.М. Бобурнома. –Тошкент: “О‘qituvchi”. 2008. – 288 б.

³ Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий (Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамова таржимаси). – Тошкент: “Sharq”. 2010. – 720 б.

⁴ Қаюмов А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: “Фан”, 2008. – 52 б.

Қудратуллаев Х. Бобур армони. – Тошкент: “Sharq”, 2005. – 384 б.

Ҳасанов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2011. – 88 б.

Иброҳимов А. Бобурийлар мероси. – Тошкент: “Меҳнат”, 1993. – 63 б.

Сатимов Ғ. Марказий Осиё ва Ҳиндистон тарихида Бобурийлар даври. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – 295 б.

Хайриддин Сulton. Boburiynoma. – Toshkent: “Adabiyot”, 2023. – 496 б.

Низомиддинов Н. Ҳиндистонда ислом: тарих, ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва ҳинд-мусулмон маданияти. – Тошкент: “Fan va texnologiya Markazining bosmaxonasi”, 2008. – 319 б.

Азимджанова С. Государство Бабура в Кабуле и Индии. – Москва: “Наука”, 1977. – 175 с.

Машрабов З. Бори элга яхшилиг қилғил. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 304 б.

Rahmonov V. Boburshoh: shoir va adib. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/boburshoh-shoir-va-adib/>. 2012.

Мадраимов А. Темурий ва Бобурийлар даври маданияти, китобат ва рангтасвир санъати тарихига чизгилар. – Тошкент: “San’at”, 2015. – 407 б.

Ражабова Б. Темурийлар ренессанси ва “Бобурнома”. – Тошкент: “Фан”, 2022. – 228 б.

Jalilov B., Mirzayeva S., Soyibjonova O‘. Navoiy va Bobur. – Toshkent: “Istiqlol”, 2008. – 79 б.

⁵ Гофурбеков Т. Бобур мусика хусусида. Назаров А. Мухтасар ва мусика. Кароматова Д. Бобур ва ҳинд маданияти. Малкеева О. Миниатюралар ҳикоя қилади. // Гулистон. - 1. 1994. - В.15-19.

⁶ Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – 744 б.

Toshpo‘latovlar⁷ qimmatli ma‘lumotlarni bayon etgan. Mazkur ma‘lumotlar bizning tadqiqotimiz uchun alohida ahamiyatlidir.

Zero o‘zbek musiqasida Zahiriddin Muhammad Bobur va undan keyingi sulola vakillarining o‘zbek va hind milliy musiqa san‘ati rivojida ahamiyatini ilmiy tadqiq etish masalasi bugungi kunga qadar o‘zbek musiqashunosligining asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelgan.

Sharq mamlakatlari olimlaridan Bobur va boburiylar sulolasi vakillariga oid ma‘lumotlar Iroj Aminiy (Eron), Sharma L.P. (Nepal), Akun Umar Forug‘ (Turkiya), Qamar Rais (Hindiston), Magida Salah Maxluf (Misr), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Eyji Mano (Yaponiya)⁸ tadqiqotlarida, mahalliy olimlardan Porso Shamsiyev, Aziz Qayumov, Farid Usmon, Fozila Sulaymonova, Xasan Qudratullayev, Sayfiddin Jalilov, Ismatillaxon Mirzayev, Sabohat Azimjonova, Saidbek Hasanov, Zokirjon Mashrabov, Vahob Rahmonov, Go‘furjon Satimov va ko‘plab yana boshqa boburshunos olimlarning ilmiy manbalarida bayon etilgan.

G‘arb davlatlari olimlarining ilmiy izlanishlari ham boburiylar sulolasining uch yarim asrlik hukmronlik davrini yoritib beruvchi qimmatli ma‘lumotlar manbayidir. Dastlab bu urinish 1680-yilda fransuz olimi Fransua Bernye⁹ tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, asar o‘z davrida qizg‘in va katta muhokamalarga sabab bo‘lgan hamda noyob manba sifatida ko‘rilgan.

Nemis adiblari tomonidan yaratilgan tarixiy-adabiy asarlar ichida faktik materiallarga boyligi, keltirilgan manbalarning tarixiy haqiqatga mos kelishi va ayrim o‘rinlarda Bobur hayotiga tegishli bo‘lgan yangi ma‘lumotlar qayd etilganligi bilan Mixail Pravdinning “Yo‘qdan bunyod bo‘lgan saltanat” (“Das Reich aus dem Nichts. Die ersten Grossmoguln”. – Stuttgart: 1965) nomli tarixiy-adabiy asari alohida ahamiyat kasb etadi¹⁰.

Ulkan sulola asoschisi Boburning buyuk ishlari xususida yana bir muallif Sh.Konerman o‘zining “Mo‘g‘ullar saltanati” (“Das Mogulreich”)¹¹ nomli ilmiy

⁷ Орипов З. Мусиқа санъати. Матёқубов О. Тошпўлатов М. “Бобурнома”да мусиқа. // Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: “Sharq”, 2014 – В. 358, 171-172.

⁸ Амийний Ирож. Бобурнинг олмоси (Кўхнур). (G‘ofurjon Satimov tarjimas). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2019. – 272 б.

Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати (ингл.тилидан таржима). – Тошкент: “Маънавият”, 1998. – 168 б.

Bobur devoni: Qobul nashriga qo‘shimcha (takmila). - Toshkent. Sharq, 2004. (nashrga tayyorlovchi: Shafiqa Yorqin qizi).

Babur-nama (Vaqayi). Concordance and classified indexes by Eijji Mano. – Kayoto. Syokado, 1996.

Усмонов Фарид. Бобур салтанати. - Тошкент: “Donishmand ziyosi”, 2020.

Низомиддинов Н.Ф. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). - Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2012. – 516 б.

Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997. – 414 б.

Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони. – Тошкент: “Шарқ”, 2005. – 384 б.

Захириддин Муҳаммад Бобур (Туркий адабиёт дурдоналари, 7-жилд). - Тошкент: 2022.

Karimov B. Ikki daho-ikki bebaho. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2020.

Темиров Р. Амир Темур, Алишер Навоий, Захириддин Муҳаммад Бобур. - Тошкент: 2019.

Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар. - Тошкент: “Шарқ”, 2006. – 112 б.

Мирзаев И. Бобур маърифати. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. – 87 б.

Хасанов Х. Захириддин Муҳаммад Бобир. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 1966. - 72 б.

⁹ Бернье Франсуа. История последних политических переворотов в государстве Великого могола. – Москва-Ленинград: 1936.

¹⁰ Турсунов А.Х. Немисзабон адабиётларда Шарқнинг буюк сиймолари талкини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент: 2019. 19-б.

¹¹ Konermann Sh. Das Mogulreich. – Muenchen: C.H.Beck. 2006.

risolasida boburiylar davrida Hindistonda o'rnatilgan yangicha davlat tuzilishi ilmfan, madaniyat va bir qator boshqa ishlar haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etadi. "Sh.Konermanning "Mo'g'ullar saltanati" nomli ilmiy risolasida olim boburiylar davri madaniyatining Hindistonda shakllanishi haqida yozar ekan, Boburni Markaziy Osiyolik temuriylar naslidan ekanini, shu bois u ulg'aygan muhit, olgan tarbiya hamda atrofidagi madaniyat fors madaniyati bilan uyg'unlashib ketgani va u bu jihatlarni Hindistonda targ'ib etishga alohida e'tibor qaratganini ta'kidlaydi"¹².

Londonlik sharqshunos, tarjimon Annet Syuzanna Beverij "Boburnoma"ni ingliz tiliga tarjima qilish orqali asarning dunyoga targ'ib etilishida muhim o'rin tutdi.

Hindistonda yigirma yil yashab, u yerdagi mavjud ko'hna qo'lyozmalardan "Tabokati Akbariy", "Tarixi Rashidiy", "Xulosat-ul Akbar", "Xulosat-ul tavorix", "Shajarat-ul-Atrok" asosida Boburshoh va Humoyunshoh hayoti va faoliyatini qadam-baqadam o'rgangan shotlandiyalik sharqshunos Uilyam Erskinning "Бобур Хиндистонда"¹³ asari ma'lumotlarning to'laqonliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixchi va tarjimon Uilyam Erskinning mazkur asari noyob tadqiqot namunasi bo'lib, muallif unda Bobur va boburiylar sulolasining Hindiston tarixi hamda Hindiston yarimorolidagi madaniy hayot shakllanishida tutgan o'rni haqida xolis fikrlar yuritadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy va jahon musiqa san'atida professional kadrlar tayyorlashning ilmiy-ijodiy prinsiplari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek-hind xalqlari musiqa merosida Bobur va boburiy (Humoyun va Akbarshoh)lar davri madaniyatini, musiqa san'ati rivojini janrlar va cholg'ular kesimida tadqiq etish, uning Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari musiqa ilmining tadrijiy rivojlanishidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Markaziy Osiyo va Hindiston madaniy aloqalari tarixiga oid o'tmish va zamonaviy manbalarni o'rganib, ular orqali boburiylar davri madaniy, musiqiy hayotini tadqiq etish;

Boburning she'riy "Devon"i va "Boburnoma" qomusiy asarida mavjud musiqiy atamalar, cholg'ular va janrlar ta'rifini aniqlash va ochib berish;

Boburnoma miniatyurasida aks ettirilgan musiqiy cholg'ularni ilmiy tahlil etish;

boburiylar hukmronligi davrida hind ijrochilik amaliyotida qo'llanilgan cholg'ularni o'zbek cholg'ulari bilan mushtarakligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek musiqashunoslik ilmida maxsus tadqiqot darajasida o'rganilmagan boburiylar ijodi tanlangan.

¹² Турсунов А.Х. Немисабон адабиётларда Шарқнинг буюк сиймолари талкини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент: 2019. – В. 21.

¹³ Уильям Эрскин. "Бобур Хиндистонда". Бобур хукмронлиги давридаги Хиндистон тарихи. Инглизчадан қисқартирилган таржима. (Таржимон Гофуржон Сатимов). Тошкент: "Чўлпон". 1995. – 111 б.

Tadqiqotning predmetini o'zbek-hind musiqa merosida ikki xalq madaniy munosabatlariga oid ilmiy qarashlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun nazariy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Bobur "Devon" idagi g'azal va ruboiylarda Duvozdahmaqom va olti ovozar: Safoxon, Navo, Buzurg, Iroq, Rohaviy, Rost, Zangula, Ushshoq, Zerafkand, Busalik, Husayniy, Hijoz saroy musiqiy an'analari mavjud bo'lganligi, "Boburnoma" da esa "Savti Chorgoh", "Rosti Panjgoh" asarlarini bastalaganligi dalillangan;

boburiylar davri saroy musiqa an'analari, xususan, davr musiqachilari va sozandalari ikki xalqqa mansub uyg'unlik jihatlari aks ettirgani, temuriylar davrida ham saroy musiqiy guruhlari sifatida faoliyat yuritgan mehtarlar Bobur saroyida ham saqlanib qolingani aniqlangan;

boburiylar davri ijrochilik amaliyotida mavjud bo'lgan musiqa cholg'ularidan Kashmir rababining dastasi, kosaxona, xarrak, pardabandi va an'anaviy o'zbek afg'on rubobining shakli, diapazoni, parda va xasparda kabilarning tuzilishida mushtaraklik mavjudligi dalillangan;

boburiylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek va hind xalq musiqalarining uyg'unlashuvi natijasida hind ijrochilik amaliyotida yangi musiqiy janrlardan dhrupad, khayal yuzaga kelgani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar davri madaniy-musiqiy muhiti, ijrochilik amaliyotiga mansub janrlar, cholg'ular yuzasidan birlamchi manbalardan olingan xulosalardan musiqashunoslik uchun muhim nazariy-amaliy ma'lumotlar aniqlangan;

o'zbek va hind mumtoz musiqa merosi, bastakorlik ijodiyoti negizida shakllangan mumtoz musiqa maktablari namunalarini o'quvchi-yoshlar orasida keng targ'ib etishda nazariy masalalar asoslangan;

boburiylar ijodiyotida eng ko'p uchraydigan shakl va janrlarning o'ziga xos jihatlari *dhrupad* va *khayal* janrlari misolida ushbu san'at turlarini tushinishda asos bo'lib xizmat qilishi aniqlangan;

oliy va o'rta maxsus musiqiy ta'lim muassasalarida, sharq musiqa san'atini o'rganishda qo'shimcha adabiyot bo'lishi, "O'zbek musiqasi tarixi", "Sharq xalqlari musiqa tarixi" kabi fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot davomida tahlil etilgan asarlardan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asoslilik, olingan natijalarning amaliyotda, ta'lim jarayonida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, nazariy xulosalar bugungi davr musiqashunosligida mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi, musiqiy manbashunoslik, san'atshunoslik sohalarida ham birlamchi manbalarda mavjud musiqiy atamalar

mohiyatini teran anglash va yangicha, o'ziga xos uslubda tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi ilmiy ma'lumotlarni oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek musiqasi tarixi", "Sharq xalqlari musiqa tarixi" fanida dasturulamal sifatida, qolaversa, sozgarlik san'atida musiqiy cholg'ular haqidagi ma'lumotlarni amaliyotda joriy etish jarayonlarida foydalidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'zbek-hind musiqa merosida Bobur va boburiylar ijodining ahamiyati va o'zbek maqomotidagi o'rni" tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Bobur "Devon"idagi g'azal va ruboiylarda Duvozdahmaqom va olti ovozarlar: Safoxon, Navo, Buzurg, Iroq, Rohaviy, Rost, Zangula, Ushshoq, Zerafkand, Busalik, Husayniy, Hijoz saroy musiqiy an'analarida mavjud bo'lganligi, "Boburnoma"da esa "Savti Chorgoh", "Rosti Panjgoh" asarlarini bastalaganligi dalillanganligidan O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida "Ijodimiz senga Vatan" turkumi doirasida o'tkazilgan tadbirda foydalanilgan (O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2023-yil 17-noyabrdagi 01-04/117-198-son ma'lumotnomasi). Natijada tadbir ishtirokchilari Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy asarlarida mavjud musiqiy ma'lumotlar, musiqa ilmiga oid yaratilgan risolasi xususida muayyan ma'lumotlarga ega bo'ldilar;

boburiylar davri saroy musiqa an'analari, xususan, davr musiqachilari va sozandalari ikki xalqqa mansub uyg'unlik jihatlarini aks ettirgani, temuriylar davrida ham saroy musiqiy guruhlarini sifatida faoliyat yuritgan mehtarlar Bobur saroyida ham saqlanib qolingani aniqlangani, qolaversa, maqom san'ati hamda an'anaviy musiqaga qaratilgan yuksak e'tibor kabi jarayonlar, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ijodi, adabiyot, musiqa sohalarida amalga oshirgan ishlari xususida olingan xulosalar O'zbek milliy maqom san'ati markazida Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bag'ishlab shoir g'azallari bilan ijro etiladigan eng yaxshi qo'shiqlar tanlovi ssenariysida foydalanilgan (O'zbek milliy maqom san'ati markazining 2023-yil 16-noyabrdagi 139-son ma'lumotnomasi). Natijada ishtirokchilar sermazmun va barakali ijodi bilan jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning asarlaridagi musiqiy iboralar, tushunchalar, atamalar bilan tanishish va mazkur sohadagi bilimlarini kengaytirish imkoniga ega bo'lishgan;

boburiylar davri ijrochilik amaliyotida mavjud bo'lgan musiqa cholg'ularidan Kashmir rababining dastasi, kosaxona, xarrak, pardabandi va an'anaviy o'zbek afg'on rubobining shakli, diapazoni, parda va xasparda kabilarning tuzilishida mushtaraklik mavjudligi dalillanganligi xususida olingan natijalar 2024-yilga mo'ljallangan (ALM 202403110255 son loyiha bo'yicha) Davlat ilmiy-texnik dasturi pedagogika va psixologiya fanlari yo'nalishi doirasidagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun brayl alifbosida "Solfejio" hamda "Musiqa nazariyasi" fanlaridan multimedia mahsulotlari majmuyini yaratish" nomli amaliy grant doirasida Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI o'zbek maqomi tarixi va nazariyasi kafedrasini professor-o'qituvchilar, loyiha a'zolari va talabalar ma'ruza-treningida foydalanilgan. (Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSIning 2025-yil 5-noyabrdagi 44-

son ma'lumotnomasi). Pirovardida tinglovchilar jahon tarixi, madaniyat, adabiyot, san'at ravnaqiga bebaho hissa qo'shgan buyuk shohning "shoh" asari "Boburnoma"da ko'plab sohalar qatori o'sha davr madaniy muhiti va undagi musiqiy qarashlar haqida muayyan tasavvurga ega bo'ldilar;

boburiylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek va hind xalq musiqalarining uyg'unlashuvi natijasida hind ijrochilik amaliyotida yangi musiqiy janrlardan dhrupad, khayal yuzaga kelgani isbotlanganidan O'zbek milliy maqom san'ati markazi tanlovi ssenariysida foydalanilgan (O'zbek milliy maqom san'ati markazining 2023-yil 16-noyabrdagi 139-son ma'lumotnomasi). Natijada musiqashunos va musiqa ixlosmandlari uchun hind va musulmon xalq musiqasidagi yangi musiqiy janrlar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lganlar.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy nashr, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shulardan 3 ta respublika va 1 ta xalqaro jurnalda maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot masalalari shakllantirilib, tanlangan mavzu va uning hozirgi zamon san'atshunoslik ilm-fani taraqqiyotida dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbek-hind madaniyati tarixidan**" deb nomlanib, uch bo'limdan iborat.

"O'zbek-hind madaniy aloqalariga doir" nomli birinchi bo'limda asrlar davomida saqlanib, bugungi kungacha davom etib kelayotgan Markaziy Osiyo va Hindiston aloqalarining ulkan ko'hna tarixi, ming yilliklarni qamrab olgan turli sohadagi munosabatlar bayon etiladi.

Moziyga boqar ekanmiz, har qanday davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda avvalo savdo ishlari va iqtisodiy jihatdan qo'yilgan manfaatdor munosabatlarga tayanilganiga guvoh bo'lamiz. Qadimda Uzoq Sharq mamlakatlarini Markaziy Osiyo orqali O'rta Yer dengizi hududi bilan bog'langan Buyuk ipak yo'li tarixda keng yoritiladi-yu, ammo Buyuk hind yo'li borasidagi ma'lumotlarni kam uchratamiz. Bu yo'l Shimoliy Hindistoning Gandhara shahri (poytaxti Taksil)dan boshlanib, Hindiqush orqali Baqtriyaga o'tib, Ko'kcha,

Qunduzdaryo, Balxab daryolari bo‘ylab Oks (Amudaryo)ga, so‘ng Xorazm orqali Kaspiy dengizigacha kelgan. Ushbu yo‘nalishda faqat hindlarga mansub buyumlar tarqatilgani bois unga Buyuk hind yo‘li deb qaralgan. Qator manbalardagi ma‘lumotlarga qaraganda, mazkur magistral yo‘l Buyuk ipak yo‘lidan ham oldin paydo bo‘lgan.

Muhammad Ahmadning hind va Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar xususida keltirgan fikriga ko‘ra, “Yunon-Baqtriya (mil. avv. 25–130-y.) davlati tashkil topgandan buyon O‘rta Osiyo xalqi hind madaniyatiga, hind xalqi esa O‘rta Osiyo xalqi madaniyati rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatib kelgan. Ikki xalqning madaniy aloqalari¹⁴da, ayniqsa, kitob tarqalishi va savdosi an‘analari katta o‘rin egallaydi”¹⁵.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda yuzaga kelgan Ahamoniylar davlati, eramizning I–IV asrlarida uch asrdan ziyod Markaziy Osiyo hududida hukm surgan Kushonlar saltanati Markaziy Osiyo va hind madaniyati yuksalishida chuqur iz qoldirgan.

O‘zbek-hind madaniy aloqalari uzoq o‘tmishdan o‘zining yuksak samarali natijalarini ko‘rsatib kelgan. Bunda bevosita allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Boqiyon Noiniy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylarning ikki xalq madaniyati rivojiga ta‘siri beqiyosdir.

O‘tmish allomalarining hind madaniyatini o‘rganish an‘anasini Abu Rayhon Beruniy nomi bilan boshlash o‘rinlidir. O‘z ijodining eng yuksak cho‘qqisiga erishgan vaqtlarda olimning bitgan nodir asarlaridan biri “Hindiston”dir. Allomaning hind tarixi, ilmi va madaniyatini atroflicha o‘rganishda yetakchi manbalardan biri sifatida xizmat qiladigan asarining to‘liq nomi “Kitobu fi tahqiqi mo lil hind min ma‘qulatin maqbulatin fal aqli av marzulatin”, (arabcha تحقيق ما للهند من مقولة مقبولة في العقل أو مردولة – “Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta‘limotlarini aniqlash kitobi” deb nomlanib, hind fani va madaniyatiga qo‘yilgan haykal hisoblanib, mamlakatning haqiqiy qadimgi va o‘rta asrlar davriga oid qomusiy asardir. Beruniy mazkur asarni yozish maqsadida sanskrit¹⁶ tilini mukammal o‘rganadi. Asarning tadqiqotimiz uchun qimmatli va dahldor tomoni shundaki, unda hind xalqiga oid aql bovar qilmas ma‘lumotlar qatorida chang musiqiy cholg‘usi xususida ham eslab o‘tiladi: “... Chang sozini cho‘p qurol bilan chaladilar”¹⁷. Hind ijrochilik amaliyotida santur (cholg‘uning tuzilishi va ijro

¹⁴ Низамутдинов И. Из истории среднеазиатско-индийских отношений в IX–XVIII вв. – Ташкент: 1969.

Низомиддинов И. Маданий ҳамкорлигимиз саҳифаларидан (Ўрта Осиё – Ҳиндистон муносабатларига доир). – Тошкент: “Фан”, 1987.

Бонград-Левин Г.М. Древняя Индия. История и культура. – Санкт-Петербург: Алетея, 2001.

Низомиддинов Н. Ҳиндистонда ислом: тарих, ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва ҳинд-мусулмон маданияти. – Тошкент: “Fan va texnologiya Markazining bosmaxonasi”, 2008.

¹⁵ Мухаммад Ахмад. Хинд-ўзбек маданий алоқалари. // Гулистон. - 1. 1994. – В. 58.

¹⁶ Қадимий ҳинд тилларидан бири. Қадимий ҳинд лаҳжалари асосида шаклланган ва милoddan аввалги 1-асрда Шимолий Ҳиндистонда тарқалган. Санскритнинг бир неча тури тури бор: эпик санскрит (“Маҳабҳарата” ва “Рамаяна” тили), классик (қатъий меъёрга туширилган тил, милoddan аввалги. 4-асрда яратилган Панини грамматикасида ўз ифодасини топган), будда (ёки гибрид), (будда дини билан боғлиқ адабиёт тили), жайн (жайн динига оид адабиёт тили), веда тили (Ведалар). Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. Тошкент: Давлат илмий нашриёти. 2004 й. 155-б.

¹⁷ Қажомов А. Абу Райҳон Беруний. Абу Али Ибн Сино. – Тошкент: 1987. 46-б.

imkoniyatlari uchinchi bobda beriladi) nomi bilan yuritiluvchi chang soziga o'xshash cholg'u mavjud bo'lib, Beruniy to'xtalib o'tgan soz aynan santurdir.

Markaziy Osiyo va Hindiston madaniy aloqalari xususida so'z borganda, Amir Xusrav Dehlaviy ijodi alohida e'tirofga loyiq jihatlardandir. Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron va Hindiston xalqlari o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishida Dehlaviy muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xususda filolog, hindshunos Ziyodulla Nasullayev shunday deydi: "Xusrav Dehlaviy ikki madaniyat uyg'unlashuvi, musulmon va hindlar hayotining barcha jabhalarida o'z izlarini qoldirdi. Hindistonga fors kuylarini olib kelganligi, setor va tabla kabi mavjud cholg'ularni mukammallashtirganligi haqida ko'plab fikrlar mavjud"¹⁸. Hindistonning yirik davlat va siyosat arbobi hamda tarixchi olimi Javoharlal Neru Dehlaviyga yuksak ta'rif berib, alloma ijodini alohida e'tirof etadi.

Musiqashunos Nargiza Hamdamova ilmiy izlanishlari¹⁹ doirasida Amir Xusrav Dehlaviyning nafaqat hind, balki dunyo musiqa olamida takrorlanmas daho ekanligini ta'kidlaydi. Uning "E'jozi Xusrav" nomli risolasiga alohida to'xtalib o'tish barobarida musiqaga bag'ishlangan bo'limini batafsil yoritib beradi. Olimaning "Amir Xusrav Dehlaviy nafaqat Hindiston musiqa madaniyatida, balki jahon musiqa madaniyatida ham XIII asr namoyandasi sifatida e'tirof etish mumkin"²⁰ deya qilingan xulosalari allomaning hind va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, xususan, musiqa ijrochiligi va ilmida o'z o'rniga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Markaziy Osiyo va Hindiston o'rtasidagi ko'p tarmoqli va turli yo'nalishlarda olib borilgan musiqiy-madaniy aloqalar asosan o'rta asr manbalarida o'z ifodasini topgan. Bu borada XVI–XVII asrlarga taalluqli qo'lyozmalar alohida tahsinga sazovor. Mazkur davrda fors tilida bir qator maxsus musiqiy-nazariy masalalarga bag'ishlangan risolalar yozilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, ikki madaniyat, ya'ni Markaziy Osiyo va Hindiston musiqa madaniyatlarining ikki asosiy musiqiy tizimlari – maqom va ragalar qiyosiy jihatdan yoritib beriladi. Aytib o'tilgan manbalarga Boqiyoi Noiniyning fors tilida bitilgan "Zamzamai²¹ vahdat" ("Yolg'izlik aytimlari") nomli noyob musiqiy risolasi ham taalluqlidir. Risola musiqashunoslik nuqtayi nazaridan hozirgi vaqtga qadar to'liq va batafsil tadqiq etilmagan²². "Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии"²³ to'plamida yozilishicha, Noiniy hind san'ati chuqur falsafiy ta'sir kuchiga ega ekanligini, hind ijrochilik amaliyotiga o'zi bilan maqomot tizimini olib kelib, hind ragalari bilan uyg'unlik kasb etgan asarlar bastalaganini ma'lum qiladi. Asar

¹⁸ Насуллаев З. Амир Хусрав Дехлавий асарларида мусика хақида маълумотлар. – Тошкент: 2010.

¹⁹ Xamdanova N.T. Amir Xusrav Dehlaviy va musiqa. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2023.

²⁰ O'sha manba. 21-b.

²¹ "Zamzama" (sug'diycha – sekin ovoz bilan ashula aytish, xirgoyi qilish) – 1) zardushtiylarning marosim duolarini ohista va mayin ohangda o'qilishi; 2) o'rta asr musulmon Sharqi tasavvuf an'alarida she'r va g'azallarni ohang bilan ijro etish shakllaridan biri. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Z harfi. – Toshkent: 2003.

²² Qo'lyozma O'zRFA Sharqshunoslik institutining noyob ro'yxatlar fondida (inv. № 10226/II) saqlanadi. Manbaning tarjimai va transkripsiyasi bilan muayyan darajada D.A.Rashidova shug'ullangan. Tarjimaning qo'lyozma nusxasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida R28 shifr, inv. № 679 raqami ostida saqlanadi.

²³ Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. – Ташкент: 1986. 116-b.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek va hind xalqlari madaniyati, san'ati o'rtasidagi mushtarak jihatlarini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Shu tariqa buyuk allomalarning ilmiy merosi zamirida ularning butun bashariyat uchun qilgan amallari dunyo tarixi sahnasida yangi sahifalarni ochib, keyingi avlodlar tomonidan munosib davom ettirilish uchun zamin hozirlagani muqarrar.

Birinchi bobning ikkinchi bo'limi XVI–XVIII asrlar boburiylar davri madaniy muhitiga bag'ishlangan. XVI asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrlarda Hindistonda qariyb uch asr hukmronlik qilgan Boburiylar davlati vujudga keladi. Yirik sulola asoschisi qo'l ostida butun Movarounnahrni birlashtirish orqali tarixda o'chmas iz qoldirgan, Afg'oniston va ulkan Hindiston davlatlarida asrlarga tatigulik burilishlar yasagan, fazilatli podshoh Bobur 1504-yili o'z vatanini tark etib, dastlab Qobul va Badaxshon, keyinchalik umrining so'nggi kunlariga qadar ikkinchi vatani hisoblanmish Hindistonga hukmdor sifatida taniladi. Bobur podshoh nomiga 1526-yili Dehli shahrida xutba o'qilib, dunyo tarixida boburiylar deb nom olgan ulkan saltanat va sulolaga asos solinadi. Mazkur davr Hindiston tarixida ilk musulmonchilik davri deb ham yuritiladi. Boburiylar sulolasidan bo'lgan ulkan saltanat davomchi-vorislari Humoyun, Akbar, Jahongir, Shohjahon va Avrangzeblar tomonidan yanada kengaytirilib, G'arbda Buyuk mo'g'ullar imperiyasi nomi bilan shuhrat topgan edi. O'zligimizni anglash uchun berilgan imkoniyatlar sari yo'l ochgan istiqloq sharofati bilan jahon tarixiga "qattiq o'rnatilgan" Buyuk mo'g'ullar no'rin atamasi nihoyat o'zligiga, asliga qaytib, munosib Buyuk boburiylar nomi bilan yuritilib kelinmoqda.

Boburiylar davrida aynan Hindiston madaniyati juda gulladi. Hindistondagi forsiy zabon shoirlar o'z mahoratlarini mukammallashtirib, fors she'riyatining eng yorqin an'alarini davom ettirgan holda yangi g'oyalar bilan sharqning buyuk donishmandlari Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviylarning ijodiy shakllari va uslublariga taqlid qilishgan. Hindiston shoirlari Fayzi Fayoz, Urfi Sheroziy, Muhsin Fani o'zlarining "beshlik"larini, Tolib Amuli va Abu Tolib Kalimlar Firdavsiyning "Shohnoma"ga nazira qilib "Jahongirnama" va "Shohjahonnama" kabi tarixiy asarlarni yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

XVI asrning ikkinchi yarmida Shimoliy Hindistonda mo'g'ul miniatyura maktabi deb nomlanuvchi musavvirlik san'atining yangi maktabi yuzaga keladi²⁴. Bu maktabning asoschilari Humoyun podshoh tomonidan Hindistonga taklif etilgan markaziy osiyolik Mir Said Ali va Xo'ja Abd As-Samad Sheroziylar bo'lishgan. Mashhur iste'dod ustalari "Boburnoma", Abu Tohirning "Darobnama" ("Podshohlar haqida kitob"), "Chingiznama", "Zafarnoma", "Ramayana", "Akbarnama" va ko'pgina boshqa tarixiy kitoblardagi miniatyuralarning yaratilishida o'z ijodlari bilan ishtirok etishgan.

Boburiylar davrida Hindistonda rassomchilik bilan birga me'morchilik san'ati ham rivoj topadi. Bobur Hindistonda qisqa muddat hukmronlik qilgan bo'lsa-da, shunday yirik davlatning Agra, Sikri, Biyan, Dholpur va Gvaleur shtatlariga dunyoning turli joylaridan tajribali me'morlarni taklif etib, bir qator inshootlarni

²⁴ Индийские миниатюры XV–XVII вв. – Москва: 1971. 10-б.

bunyod ettirishga bosh bo'lgan. Podshoh Humoyun davrida ham qurilish ishlari jadal ravishda olib borilgan. Me'moriy qurilishlarning buyuk bunyodkori sifatida tarixga Akbar podshoh nomi kiritilgan. Hind olimlarining e'tirof etishlaricha, Shohjahon hukmronlik qilgan davr me'morlikning oltin davri deb qayd etiladi. Shohjahon tarixga buyuk shaxs sifatida muhrlandi. Buyukligi uning erishgan g'alabalari yoki zabardastligi bilan emas, balki olamshumul san'at obidalarini yaratishda bosh bo'lganligi bilan belgilanadi. Chunki bunday obidalar hozirgi paytgacha dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda²⁵. Darhaqiqat, dunyo mo'jizalaridan bo'lmish Agradagi "Toj Mahal", Dehlidagi "La'l qal'a" (Qizil qal'a)²⁶ va "Jome masjid" nafaqat Hindiston, balki kurrayi zamindagi benazir obidalardan hisoblanadi.

"Boburiylar sulolasi va musiqa san'ati" nomli 1.3.-bo'limda boburiylarning barcha vakillari musiqa san'atiga homiylik qilgani, Boburning o'zi nafaqat musiqa shaydosi, balki musiqiy asar muallifi ham bo'lgani bayon etilgan (bu xususda dissertatsiyaning alohida bo'limi mavjud).

Boburiylar sulolasining davomchilaridan biri, Boburning farzandi Humoyunning ham musiqaga bo'lgan muhabbati, havasi yuksak bo'lgan. "Uning saroyida "Ahle murod", ya'ni murod ahli nomidagi maxsus madaniy hordiq chiqarish mahkamasining arboblari bo'lib, ular podshohning ishonchli, ilimli, dindor kishilari edilar²⁷. Humoyun podshoh saroyida Mavloni Bazmi, Soqidaroz, Hofiz Mehdi Bakovuli, To'fon Naychi, Boyazid karnaychi, Muhammadjon qonunchi, Masturbek Baqqol, Mulla Tohir Buxori kabi juda ham ko'p xonanda va sozandalar xizmat qilishgan.

Boburning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma"²⁸ asaridan Humoyunshoh davridagi musiqiy an'analar, uyushtirilgan musiqiy bazmlar borasida muayyan ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Hindiston davlatida 50 yil hukmronlik qilgan (1556–1605) Boburning nabirasi Akbarshoh davrida musiqa san'ati bo'lgan e'tibor alohida ahamiyat kasb etgan. Chunki boburiylar davridagi musiqa san'atining gullab-yashnashi aynan Akbarshoh saltanatiga to'g'ri keladi. Akbarshoh o'z saroyining zeb-u ziynatini yanada oshirish maqsadida mashhur xonanda va sozandalarni, shoir va adiblarni o'z saltanatiga jalb qilib, ularga homiylik qiladi. Jumladan, "Uning saroyiga kirishda oltmish nafar erkak va ayol ijrochilardan iborat orkestr joylashgan bo'lib, uning tarkibi hindlar, eroniylar, kashmirliklar va turklardan iborat edi"²⁹. Saroy musiqachilaridan tuzilgan maxsus yetti guruh haftaning har bir kuniga bo'lingan holda o'z faoliyatlarini olib borishgan.

Dissertatsiyaning **"Bobur adabiy merosida musiqa ta'riflari"** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida sermazzun va barakali ijodi bilan jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri Zahiriddin Muhammad

²⁵ Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. - Тошкент: "Фан", 1994. 29-б.

²⁶ Tarixiy obidalarning fotosuratlarini ilovada keltiriladi.

²⁷ Achariya Brihaspati. "Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi". (Tarjima Z.Nasullayevga tegishli). Toshkent: 2009. 37-б.

²⁸ Гулбаданбегим. Хумоюннома (Таржимон Сабоҳат Азимонованинг сўз бошидан). - Тошкент: "Маънавият", 1998.

²⁹ The music of India by Reginald & Jamila Massey. – New Delhi-110016., Abhinav Publications, 1996. 49-б.

Boburning asarlarida musiqiy iboralar, tushunchalar, atamalarga urg'u beriladi. Bobning birinchi bo'limi "**Bobur – shoh, shoir va musiqa ilmi bilimdoni**" deb nomlangan. Dunyo tamaddunida abadiylikka dahldor sulola asoschisi Bobur³⁰ dilbar, mo'tabar shoh bo'lish bilan birga san'at va adabiyotga qiziqqan, turkiy va forsiy tillarda she'rlar bitgan mumtoz shoir va adib edi. Bizgacha shoirning *g'azal*³¹, *ruboiy*³², *tuyuq*³³, *fard*³⁴ va *masnaviy*³⁵laridan iborat she'riy merosi ("Devon") yetib kelgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Bobur umr bo'yi yaratgan lirik asarlaridan ikki devon tuzgan. Ularning birinchisiga Movarounnahr va Afg'onistonda, ikkinchisiga Hindistonda yozgan she'rlarini kiritgan.

Bobur "Devon"ida mavjud musiqiy atamalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan:



Bobur nafaqat shoir, adib, balki yirik adabiyot nazariyotchisi, aruzshunos hamdir. Turkiy aruzga bag'ishlangan "Muxtasar"³⁶ nomli ilmiy asari o'zbek she'riyati nazariyasini o'rganishda Shayx Ahmad bin Xudoydod Taroziyning "Funun ul-balag'a" va Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarlaridan keyingi mukammal asar hisoblanadi. Ayrim adabiyot tarixiga bag'ishlangan manbalarda "Muxtasar", "Mufassal" nomi bilan ham yuritiladi. Sababi "Boburnoma"ni ko'chirgan kotib Boburning aruz risolasi nomini "Mufassal" deb ko'rsatgan.

³⁰ Хасанов С. Захириддин Мухаммад Бобур. Тошкент: "O'zbekiston", 2011. 3-b.

Захириддини Мухаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент: "Sharq", 2014. 105-b.

Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Тошкент: 2009. 13-b.

Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: 1965. 636-b.

³¹ Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr. G'azal atamasi dastlab VI–VII asrlarda arab she'riyatida paydo bo'lgan, so'ng O'rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o'tib, XIII–XIV asrlarda to'la shakllangan. Hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan. Lekin 21, hatto 27 baytli g'azal namunasi ham uchraydi. G'azalning paydo bo'lishi va rivojlanishi musiqa san'ati bilan chambarchas bog'liq. Qomus.info onlayn ensiklopediyasi.

³² Arabchadan – to'rtlik. Sharq xalqlari she'riyatida keng tarqalgan poetik janr. Qomus.info onlayn ensiklopediyasi.

³³ Turkiy xalqlar mumtoz she'riyatidagi lirik janr. Tuyuq 4 misrali she'r bo'lib, aruzning ramal bahrida yoziladi. Qomus.info onlayn ensiklopediyasi.

³⁴ Arabchadan – якка, ёлғиз. Яқин ва Ўрта Шарқ адабиётидаги поэтик жанр. Ҳажми бир байт, яъни икки мисрадан иборат бўлади. Фарднинг қисқа ва ихчамлиги шоирдан "Минг маънини бир нуқта билан мухтасар этиш"ни (Машраб) тақозо этади. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. - Тошкент: Давлат илмий нашриёти. 9-жилд. 2005.

³⁵ Arabchadan – иккилик, кўплиги – маснавиёт. Ҳар бир байтнинг мисралари қофиядош бўлган ва байтдан байтга қофияси янгиланиб борадиган шеърый шакл. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. - Тошкент: Давлат илмий нашриёти. 5-жилд 2003.

³⁶ Бобир З.М. "Мухтасар". - Тошкент: "Фан", 1971.

“Muxtasar” ikki bobdan iborat bo‘lib, dastlabkisida “rukn yasash, hijo, zihof, bahr va doiralar”³⁷, ikkinchi bobda vazn masalalari bayon etiladi.

Boburning bastakorlik sohasida ham salmoqli ijod namunalari mavjudligi qator manbalarda ta’kidlab o‘tiladi. Mumtoz so‘z san’ati dahosi Navoiy singari alohida bosqichga ega Bobur nafaqat zakiiy shoir, balki bastakor sifatida ham tan olingan. O‘tgan asr va zamonamizning yetuk musiqashunos olimlarining ilmiy, tahliliy manbalari va izlanishlarida³⁸ Bobur maqom tarkibiga kiruvchi naqshlar, peshravlar, savtlar, chorgohlar “bog‘lagani” (bastalagani) xususidagi mulohazalari mavjudligi Bobur ijodiga mansub *naqsh, peshravlar* O‘n ikki maqom va bugungi kundagi maqomlar tarkibidan o‘rin olgan ayrim cholg‘u va aytim shakllariga mutanosib ekanligiga ishonch hosil qilishimizga zamin yaratadi. Bobur Rosti panjgoh ashula yo‘liga saj³⁹ she’riy shaklini bog‘lab, dastlabki bastakorlik iste’dodini namoyon etgani, qolaversa, “Boburnoma”da Chorgoh savtini bog‘lagani haqida so‘z yuritiladi.

